



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022- yil 12- dekabrda
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

BAYONI № 18

2022- yil 12- dekabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:	Sh.Abdiyev	Boshqarma boshlig'i v.b.
Qatnashdilar:	S.O.Xursanov	Davlat xavfsizlik xizmati Samarqand viloyat boshqarmasi tezkor xodimi Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari, Komissiya a'zolari, boshqarma hamda shahar va tumanlar statistika bo'limlari xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tizimli o'rganish hamda "Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz" mavzusini muhokama etish to'g'risida.

(Sh.Abdiyev, S.Xursanov, T.Sidikov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i v.b Sh.Abdiyev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini doimiy ravishda o'rganish yuzasidan axboroti eshitildi.

Jumladan, bugungi globallashuv davrda davlat va jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga to'siq bo'lib kelayotgan "korrupsiya" deb atalmish salbiy illatning mavjudligi barchamiz uchun favqulodda holat deb baholanmog'i kerak. Ushbu illatga qarshi kurashishni nafaqat har bir davlat xizmatchisi balki, barcha fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatining tub negiziga singdirilishi biz uchun korrupsiyaning barvaqt oldini olishda muhim va asosiy qadam bo'lishini ma'lumot o'rnida aytib o'tdi.

Shuningdek, kun tartibidagi yig'ilishda Davlat xavfsizlik xizmati Samarqand viloyat boshqarmasi tezkor xodimi S.Xursanov so'zga chiqib, **"Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz"** mavzusida ma'ruza qildi.

Bugungi kunda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularni oldini olish borasida hamkor tashkilotlar singari statistika organlari ham qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga yetkazish bilan

fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olishda tizimli ishlar amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tdi.

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lishi, Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat korrupsiya va poraxo'rlikdir. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutganini ko'rishimiz mumkin.

"Korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. Korrupsiya mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat ekanligi to'g'risida ham to'xtalib o'tdi.

Korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin, korrupsiya holatiga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'ul hisoblanishi hamda davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlarining bunday illatni oldini olish va unga qarshi kurashda birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo'li bo'lib hisoblanadi.

Jamiyatda korrupsiyadek millat bor ekan unga qarshi kurashishda barchamiz o'zimizning hissamizni qo'shishimiz lozim. Xodimlar o'rtasida nojo'ya va nomunosib hatti-harakatlarning oldini olish borasida profilaktik tadbirlarni, ularning mas'uliyati va javobgarligini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rish kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Jamiyatni har tomonlama rivojlantirish har bir mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday davlatlar borki, ularning har birida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va unga qarshi kurashish to'g'risida normativ hujjatlar qabul qilingan. Korrupsiya muammosi bugungi kunda dunyo miqyosida o'z yechimini talab etayotgan birinchi masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois ham, jahon hamjamiyati bu illatga qarshi keskin kurashayotganligi bu yo'nalishda bir qator xalqaro hujjatlar ham qabul qilinganligini ma'lumot o'rnida ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i v.b. Sh.Abdiyevning O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat xavfsizlik xizmati Samarqand viloyat boshqarmasi tezkor xodimi S.Xursanovning "**Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz**" mavzusida qilgan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyah) va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma rasmiy veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnoma tuzuvchi



X.Xolmo'minov